

Nasiba TO'RAYEVA

SOG'INCH

Ilk she 'riy to 'plam

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston
Milliy kutubxonasi nashriyoti
Toshkent - 2004

84 (50') 6-3
T 97

Nasiba TO'RAYEVA

SOG'INCH

She'rilar

Adabiy-badiy nashr

T97

To'raeva Nasiba.

Sog'inch: Ilk she'riy to'plam/ Nasiba To'raeva.-T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2004.-48 b.

№ 540-2004

Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi.

20/15
A 289

Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston Mi

10

O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2004 y.

© Nasiba To'rayeva.

© Alisher Navoiy nomidagi

Kamolga yet, Nasiba qizim!

Navqiron va sehrli Qoraqalpog'iston zaminida, qadimiylar Xorazm vohasida, jafokash Orolbo'y i hudoqlarida tug'ilib, voyaga yetgan iste'dodlar hamisha xalqimizning ma'naviyatini yuksaltirib, chin farzandlik sadoqatini namoyon etib kelganlar. Bu tuproqda ulug' Jiyan jirovning, Munisu Ogahiyalarning, Kunxo'ja, Berdaq, Ajiniyozlarning, Feruz, Komiljonu Oyimxonlarning, Suyav, Muso va Ahmad baxshilarning ruhlari hamon barhayot. To'lepbergen, Ibroyim, Omon, Matnazar, Guliston kabi alp iste'dodlar ijodi bugungi zamondoshlarimiz hayotini, turmush tarzini, o'yfikrlarini roman va esselarda, she'r va dostonlarda dunyoga namoyon qilayotir.

Mana, men hozir murg'ak iste'dodi ko'z ochayotgan jajji qizimiz Nasibaxonning umidbaxsh she'rlarini o'qib o'tirib, shunday xayollarga berildim. Bu bejiz emas, shekilli. Nasibaxonning mashqlari ana shunday mulohazalar yuritishga asos bo'la olgulik. Ushbu she'rlarni o'qib, bunga o'zingiz ham ishonch hosil qilsangiz, ajab emas, muhtaram o'quvchilar!

Nasibaxon qizim, boyta aytganimday, hali yosh. Lekin ushbu to'plamdag'i she'rlari uning kelajakda katta iste'dod bo'lib yetishishiga umid uyg'otdi. Qizimga "ijoddagi yo'ling oq bo'lsin, kamolga yet!" deb tilak bildirgim keldi.

Nosir FOZILOV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bolalar
adabiyoti kengashining raisi

O'ZBEKISTON VATANIM

Uchgim keladi bugun,
Osmoningda qush bo'lib.
Bag'ringni kezsam butun,
Misli daryoday to'lib.

O'yimda ham ey Vatan,
Sog'inaman shunchalar.
Poylaringga to'shalgan,
Mehring istab qanchalar.

Xayolimda onamday,
Erkalanib quchaman.
Goho jajji go'dakday,
Islaringni ichaman.

Hayqiraman dunyoga:
O'zbekiston – Vatanim!
Baxti bekam ziyoda,
O'zbek, nasl-nasabim!



YURTBOSHIMGA

Yaxshi o'qinglar, deb,
Da'vat qilar yurtboshi.
Elda aytar so'zim deb,
Bo'lingiz deb ishboshi.

Ishonchingiz oqlaymiz,
Omon bo'lsak bir kuni.
Tinchlikni saqlaymiz,
Obod etib Vatanni.

Ko'nglingizni etib shod,
Fan ufqlarin ochamiz.
Vatanni etib obod,
Istiqlolni quchamiz.

AMUDARYOGA

To'lib-toshib oq, daryo,
Senga ko'z tikkан dunyo.
Orol dardin yuv, daryo,
Sen toshsang, rizqim butun.

Orol qurib qolmasin,
Umid yo'lda tolmasin.
Dillar g'amga to'lmasin,
Sen toshsang, ko'ngil butun.

To'lib-toshib oqaver,
Cho'llarga gul taqaver.
Orol tomon chopaver,
Dengiz senga zor bugun.



YUMURTOV

Seni tashib ketayotir,
Har tomonlarga.
Toshlaring nurayotir,
Goh somonlarday.

Tabiatda o'Ichov bor,
Tog'lar ham kerak.
Hatto sabru so'rov bor,
Me'yor ham kerak.

Kovlab-kovlab bir kuni,
Tugatsalar, oh.
Tabiatga bu xunni,
Kim to'laydi, voh.

Ogoh bo'ling odamlar,
Yumurtovlarga.
Kelajakda bu damlar,
Bu so'rovlarga.

Avlodlar so'rashsalar,
Bu tog' qani, deb?
Hayrat-la qarashsalar,
Aytamiz ne deb ?



O'ZBEGIM AZIZ

Kuyukko'pir so'lim joy,
Onamning yurti.
Ichsam-da bu yurtda choy,
Asalday totli.

Kuyukko'pirdan so'zlasam,
Zavqlanar onam.
Bu yurtni e'zozlasam,
Faxr etar har dam.

Toshovuz eli juda,
Aziz dadamga.
Vatanin eslab kunda,
Madh etar dilda.

Biz uchun-chi dunyoda,
Mang'it eng aziz.
Barcha eldan ziyoda,
O'zbegin aziz!

HAVAS

Dugonam bor pazanda,
Qo'li shirin, mazali.
Tong saharlab, azonda,
Nonlar yopar jizzali.

Momolar suyar uni,
Ming aylanib bo'yidan.
Odobli qiz deb uni,
So'z ochishar to'yidan.



Ajab, deyman hali biz,
Kichkinamiz juda ham.
To'ydan so'zlab netamiz,
Momojon-ey ertadan?

Ming aylanib, o'rgilib,
Momolar kulishadi.
Dugonamni alqashib,
– Havas-da, – deyishadi.

YAXSHILIK QIL

Yomon dema yomon odamni,
Yomonligi oshib ketadi.
Daryo yo'lin to'ssang olamni,
Yo suv, ofat bosib ketadi.

Yomonning ham yaxshiligi bor,
Yuragiga kirib ko'r uning.
Yomonlikka dunyo o'zi dor,
Yaxshiligin qadrla uning.

Shundaylar bor yaxshilikni ham,
Yomonlikka yo'yib yashaydi.
Tor kelganda ko'ziga olam,
Ezgulikni sotib yashaydi.

Bir yomonni yaxshi qilolsang,
lymondandir gar buni bilsang.



ENDI BILSAM

Men ba'zan o'zimni ham,
Tanimaylar qolaman..
Yuragimni bosib q'am,
Xayollarga tolaman.

O'z "men"imdan kecholmay,
Yuraman kibr bilan.
Savollarni yecholmay,
Kelishmam sabr bilan.

Manmanlik dunyosida,
Adashaman sargardon.
Hashamat daryosidan,
Chiqolmay chetga hayron.

Bilsam bari o'tkinchi,
Kibru havo dushmandir,
Yuragimning ovunchi,
Endi so'nqgi pushmondir.

Pushaymonni qo'y, Nasi,
Yoshlik chamaniga kir.
Bu chamanning har xasi,
Dilginangdan olar kir.



YURTIMNING YOMG'IRI

Yomg'ir yog'ar shir-shir,
Bog'lar g'uborin yuvib.
Tabiatda ajib sir,
Tuproq ketadi ivib.

Bir zumda yer-u osmon
Tip-tiniq rang oladi.
Shamol esib shu zamon,
Bulutlarni quvadi.

Ivib ketgan tuproqni,
Quchoqlaydi zarrin nur.
Nurga to'ygan tuproqni
Gullar quchib, aylanur.

Yurtimning yomg'iri ham
Shunchalar ajib, go'zal.
Bundan shod Nasiba ham
Toabad bitgay g'azal.

RASSOM

Rassom qo'lida qalam,
Xayollarga berilgan.
Ko'z oldida keng olam
Go'yo jam bo'lib kelgan

Yaratadi shu mahal,
Jajji qalam mo'jiza.
Qad rostlaydi Tojmahal,
Muhabbatga qasida.

Yetti iqlim nafasi
Suratdan ufuradi.
Ko'ngillarning safosi
Sadoqat qulf uradi.

Rassom mammun ishidan,
His etib zo'r qudratni.
Ko'chirib dil arshidan.
Yurakdag'i suratni.

TILAK

Istar edim dunyoda odam,
Yashayversa abadul-abad.
Urush ko'rmay bu ko'hna olam,
Odam bilan yashasa abad.

G'am neligin bilmasa hech kim,
Quvonchlardan gullar eksalar.
Yer-u osmonlarning tinchligin
Ko'rib qushlar xandon uchsalar.

Hamma yoqda nehnat, yaratish,
Bir-birovni xo'rslash bo'lmasa.
Xayollarda faqat yashnatish,
Va gullatish orzusi bo'lsa.



NAVRO'Z

Navro'zi olam keldi,
Qirmizi lolam keldi.
Boychechaklar qiqirlab,
Billur qah-qaham keldi.

Tog'lar bag'ri to'yxona,
Gullar kuylar pinhona.
So'qmoqlar yashil gilam,
Raqs etadi chuchmoma.

Barokat ber Alloh, deb,
Dehqon yerga berar zeb.
Bolarilar yo'liga,
Bog'u-rog'lar yoygan sep.

Har lahzada kuy-qo'shiq,
Kuylarga dil qorishiq.
Sumalaklar tortilgan,
Ajib dasturxon yoziq.

Arg'imchoqlar shamoli,
Sochlarmni silaydi.
Ona yurtim jamoli,
Navro'zdan yaltillaydi.

TURNA BILAN MAYNA SUHBATI

Buvimlarning bog'ida,
Olxo'rining shoxida,
Turna bilan maynani,
Ko'rdim suhbat chog'ida.

Mayna aytar: turnalar,
Nechun har yon ketarlar?
Yoz bo'yi biz tomonda,
Qishda qay'on ketarlar ?

Turna dedi: maynajon,
Do'st erurmiz jonajon.
Iliq mehr, kuch olib,
Kezamiz biz keng jahon.

Dehqonlarga xabarchi,
Qoru qishdan darakchi.
O'zimizdir bilsang qar,
Ezgulikning daragi.

Do'stim, sizlarni nega,
Aytishadi deb mayna?
Buning bir siri bormi,
Yoki sababi qayda ?

Bu ajdodlar xatosi,
Tuzatolmas hech mayna.
Bobomlarning bobosi,
Bir kuni bo'lgan mayna.

Hushtagimiz sevarkan,
Qushlar sevib tinglarkan.
Tong mahal barcha qushlar,
Shu kuydan uyg'onarkan.

Ammo bir kun o'rmonda,
Barcha qolmish armonda.
Hushtagin chalmabdi qush,
Ahli o'rmon hayron-da.

Bu ne holat, debdilar,
Va uyiga kepdilar.
Kelib qushni uyquda,
G'aflatda ko'ribdilar.

Uyasi patos, vayron,
Qushlar kulibdi chunon.
Rosa mayna qilishib,
Qo'yibdilar shunday nom.

Ajib suhbatni tinglab,
Shod bo'ldim men ertalab.
Buvijonim bog'idan,
Qaytdim uyimga quvnab.

TOVUS VA ILON (Mitti ertak)

Bolajonlar, eshiting,
Sizga ertak aytaman.
Faqat biroz sabr eting,
Haqiqatni aytaman.

Bor ekan go'zal tovus,
Tovlanarkan parlari.
U tushsa to'lib hovuz,
Jimirlar saharlari.

Hovuzning malikasi,
Hukmdori u ekan.
Chor atrofning bekasi,
Shu go'zal malak ekan.

Qanotlarin yozgancha,
Hovuzda cho'milarkan.
Ko'kraklarin kergancha,
Qumlikka ko'milarkan.

Bir kuni u hovuzda,
Suv ilonni ko'ribdi.
Bu ne, deb bir alpozda,
Ilon tomon yuribdi.

Bulg'ab hovuz suvini,
Ne bor bunda ilon, deb ?
Cho'qib oldi dumini,
Qorang ko'rrnay bir on, deb.

Og'riqdan dod-voy solib,
Ilon qochib qolibdi.
Hovuzdan chiqa solib,
O'zin pana olibdi.

Shundan beri suv ilon,
Tovuslardan qo'rqarkan.
Tovusni ko'rgan zamon,
Tiraqaylab qocharkan.

ORZU

Osmonlarni sevaman
 Kengligi uchun.
 Quyoshdan kuch olaman,
 Mehri teng uchun.

Bog'larni quchog'imga,
 Bosgim keladi.
 Saxiylik bulog'idan
 Ichgim keladi.

Qanot yozib samoni,
 Quchsaydim qani?
 Qushlar yetgan ma'voni,
 O'psaydim qani ?

Daryolarni belimga
 Bog'lagim kelar.
 O'zni ilm yo'liga
 Chog'lagim kelar.

QUYOSH

Quyosh, quyosh, quyoshjon,
 Nuringni soch elimga.
 Oromda qolsin jahon,
 Mehring ela yo'limga.

Issiq tafting dilimga,
 Mehru muhabbat berar.
 Qiru dala yo'limga,
 Rizqu saxovat berar.

Oqibatni, mehnatni,
 Sendan o'rgansin odam.
 Sadoqat, muhabbatni,
 O'zingdan olsin olam.

QO'SHIQ SEHRI

(Xalq hofizi Ma'murjon Uzoqovni tinglab)

Derazadan qo'shiq taralar,
Ohanglari yurakka yaqin.
Ohanglardan se'hr yaralar,
Borliq uni tingleyatotir jim.

Bir qo'shiqli, sehridan dil sel,
Oqayotir daryoday to'lib.
Moziylardan go'yo bog'lab bel,
Mashrab bobom kelar to'kilib.


Estrada qilmaydi "bang-bang",
Xonish qilar Ma'murjon hofiz.
Quloqlarni etmaydi batang,
Dil o'rtovchi bu xonish hargiz.

Mashrab dilin kuydirib chiqqan,
Har bitta so'z sehri daryodir.
Ma'murjonnini kuylatib o'tgan,
Mumtoz qo'shiq, mumtoz dunyodir.

PAXTAZORDA

Kun bo'yli paxtazorda
Momom bilan ishladim.
Shaylanib tong saharden,
Quyosh bilan yashadim.

Dalalarning bag'riga,
Sochilganday yulduzlar.
Oppoq paxta tog'iga
Havasdadir qunduzlar.



Har chanoqda nur bo'lib,
Porlaydi O'zbekiston.
Etaklar rizqqa to'lib,
Yuksalar buyuk xirmon!

TUSH

Ajoyib bir tush ko'rdim,
O'zimni sarhush ko'rdim.
Qo'llimda bir savat gul,
Tanamda qanot ko'rdim.

Savat to'la gul bilan,
Uzun, yorug' yo'l bilan.
Ucharmishman shodumon,
So'zlashib o'ng-so'l bilan.

Bir nuroniy bobolar,
Ham nuroniy momolar.
Qollarimdan tutarmish,
Musaffomish havolar.

Ruhim yengil shod-xurram,
Emish har taraf bayram.
Farishtalar qo'l silkib,
Aylarmish lutfu karam.

Momom guling ber, dermish,
Bobom qizim kel, dermish.
Qanotlarim siypalab,
Menga fotha berarmish...

Uyg'onib ketdim shu on,
Dilimni bosdi armon.
Yana bir pas uchsaydim,
Buncha huzurli osmon!

Turib boqqa yo'l oldim,
Savatga gullar soldim.
Singilcham bilan asta,
Qabristonga yo'l oldim.

Bobolarim qabrini,
Ziyorat qilib qaytdim.
Tilga olib Tangrini,
Rahmatlar tilab qaytdim.

TILANCHI

Uyimizga ertalab,
Kelib qoldi tilanchi.
Qizim, dedi erkalab,
Qani, tilak tilang-chi!

Hayron bo'ldim bundan men,
Qanday tilak tilayin?
Tilanchiga hayronman,
Undan nima so'rayin?

Onam chiqib non berdi,
Dadajonim esa pul
Tilanchi kulib dedi:
Alloh sizga bersin ul.

Uyingizga doimo,
Yo'l solsin farishtalar.
Taqdiringiz doimo,
Bog'lasin pok rishtalar.

Oyi, dedim, siz undan,
Tiladingizmi shuni?
Qizim, har yorug' kundan,
Tilaymiz yaxshilikni.



YELKAMDAGI FARISHTALAR

O'ng yelkamda farishta,
Chap yelkamda farishta,
Og'rinib desam gar "voh",
Yoki chekkanimda "oh",
Yomonlikka o'tsam gar,
Xunrezlikka bo'lsam kar,
Munofiqqa do'st bo'lsam,
Yo dili yovuz bo'lsam,
Bariga bo'lar guvoh,
Bularning bari gunoh.
Shuning uchun Nasiba,
Sen halol-u pok yasha.

KASHFIYOT

Erta bahor ochilar
Tog' bag'rida gul-lola.
Quchoqlarin to'ldirib,
Lola terar Hilola.

Qizil, sariq va oppoq,
Gullar aro yagona.
Boychechak nurga mushtoq,
Terib olar Durdona.

Gul sayli, ko'ngil sayli,
Sayilgohdir Vatanim.
Dillarda mehnat mayli,
Elim bilmaydi tinim.

Tog' ustida bir savat,
Gul tutar elga bodom.
Bu dam dalada albat,
Urug' sochadi bobom.

Durdona-yu Hilola,
Sayr etdi gul chamanni.
Hayratdadir Nasiba,
Kashf etib hur Vatanni.

SINGLIMGA

O'yna, o'yna shod bo'lib,
Qushdayin uch, yoz qanot.
Sen quvonsang, dil to'lib,
Go'zal ko'rinar hayot.

Raqsing go'zal, o'zing ham,
Xulqing go'zal, so'zing ham.
Dilimizni yoritib,
Turar shahlo ko'zing ham.

Ish qilsang chaqqonliging,
Dadamlarga yoqadi.
Qadami chaqmoqliging,
Onamlarga yoqadi.

Ulg'ayib zo'r inson bo'l,
So'zları elga manzur.
Davralarga gulday to'l,
Bo'layin sen-la masrur.

QO'ZICHOQ

Qo'zichog'im qo'zichoq,
Muncha ko'zlarling munchoq?
Sakrab-sakrab o'ynaysan,
Singilcham bilan quvnoq.

Yoqimli ma'rashlaring,
Mo'ltilab qarashlaring.
Dilimni quvnatadi,
O'ynoqlab sakrashlaring.

Qo'g'irchoqday erkalab,
Suyamiz silab-silab.
Ovunadi singilcham,
Seni ko'rsa ertalab.

FERUZA

Osmonlarda kamalak,
Senga mengzar, Feruza.
Sochi sunbul, jamalak,
Ko'zi shahlo, Feruza.

Qarashlaring muloyim.
So'zlarling shirin juda.
Ibrat qilishib doim,
El maqtamas behuda.

Kamalakday tovlanib,
Barchaga xush yoqasan.
Onajonlar aylanib,
O'rgilsa, jim boqasan.

Hatto men ham sendayin,
Go'zal bo'lgum keladi.
Har yurakda guldayin,
Yashnab, to'lqim keladi.

QALDIRG'OCH

Ko'kda yayrab uchadi,
Qaldirg'ochim.
Dilni umid quchadi,
Un, og'ochim.

Qaldirg'ochim uyimda,
Ulug' mehmon.
Hatto ko'ngil,
Uyimda, udir mezbon.

U ko'ngildan ko'ngilga,
Qo'shiq keltirar.
Tabsin aytib har dilga,
Orzu keltirar.

Qaldirg'ochim kelganda,
Olam to'ladi.
Val-fajrin boshlaganda,
Osmon to'ladi.

Rizqu ro'z tomonlardan
Kelar qaldirg'och.
Yaxshilik, omonlikdan,
Darvozangni och!

SALOM YOSHLIK

Bolaligim, o'tmoqdasan,
Bunchalar sen shoshib, tez.
Podshohligim, ketmoqdasan,
Vaqt oldida cho'kib tiz.

Chaman-chaman orzularim,
Yuragimda gul ochar.
Oppoq, ezgu tuyg'ularim,
Yo'llarimga nur sochar.

Bolaligim, beboshligim,
Havas berding dilimga.
Ochib qasrin gul yoshligim,
Hayrat sochding yo'limga.

Salom, yoshlik, salom, go'zal
Tuyg'ularning ummoni.
Yuragimda ezgu go'azal,
Muhabbatning osmoni.

Yolvoraman boshim egib,
Meni tashlab ketmagan.
Sen umrimni chaman etib,
Bahor etib yashnagin!

KAMALAK

Kamalakjon, kamalak,
Sen orzular rangisan.
Hu sochlari jamalak,
Singlimning oq tongisan.

So'lim bahor iforin
Ichib olgan kamalak.
Ona – Vatan bahorin.
Quchib olgan kamalak.

Yetti iqlim chiroyi,
Mujassamdir o'zingda.
Yurtimning har kun, oyi,
Tovlanadi ko'zingda.

Kamalakjon, kamalak,
Aslo yiroq ketmagan.
Yurtimga yoygin palak,
Yoyingni yo'qotmagan!

BAHOR BO'LAMAN

Men tug'ildim go'zal fasli bahorda,
Binafshalar qiyg'os gulga kirganda.
Gullarning iforin ichgan nahorda.
Quyosh ham bahoriy avjga kirganda.

Ilk bora qadamim maysani quchdi,
Boshimdan to'kildi o'rik gullari.
Nafasim damida dil quvonch ichdi,
Olib ketdi meni shodlik yo'llari.

Bu yo'llar aro men yugurib-yelib,
Bolalik so'qmog'in bosib o'tibman.
Yoshlikning muazzam bog'iga kelib,
Go'zallik bag'rige singib ketibman.

O qandayin soz yoshlik chog'lari,
Muhabbat qudratli qanotdir menga.
Yurtimning tog'lari, bog'u rog'lari,
Vatan muhabbati najotdir menga.

Bahorday yashayman gullab-ko'karib,
Har bitta yurakda mador bo'laman.
Yashayman dillardan g'amni ko'tarib,
Qaqragan cho'llarga bahor bo'laman.

KATTA ODAM BO'LAMAN

(*Ustozlarimga*)

Zebu ziynatdan a'lo,
Qalbingiz javohiri.
Hatto otashdan a'lo,
Mehru ilmingiz nuri.

Boshlab ilm yo'liga,
Qalbimga nur berdingiz.
Shogirdingiz qo'liga
Baxt kalitin berdingiz.

Bu hayot gulshaniga
Bir niholday ekildim.
Etu yurtning sha'niga
Sharaf bo'lib to'kildim.

O'qib-o'qib bir kuni,
Katta odam bo'laman.
Gul Vatanning maftuni,
Quyoshdayin to'laman.

Nur yo'g'irib dillarga,
Yashagum sizday yonib.
Ustoz kelar yo'llarga,
She'r bitgum yonib-yonib.

ONAMGA

Yuragimning ishonchi,
Butun olam quvonchi.
Dilginamning ovunchi,
Umrim guli – sevinchi
O'zingizdir Onajon!

Tonglar kabi fusunkor,
Qalbingizda otash bor.
Nigohingiz maftunkor,
Yuzingizda quyosh bor.
Mehri ummon, Onajon!

Non yopasiz saharlarda,
Xayolingiz farzandlarda.
Bichib-tikib uxlamaysiz,
El uxlagan mahallarda.
Fidoiysiz, Onajon!

Kasal bo'lsak jon halak,
Vujudingiz ming bo'lak.
Dilingizda bir tilak:
Bolamni asra, falak!
Duodasiz, Onajon!

Doim omon bo'lgaysiz,
To'lin oyday to'lgaysiz.
Mehri jahon, qalbi quyosh,
Olamni quchgan otash –
Onajonim, Onajon!

SHOIR MUHAMMAD YUSUFGA

Sen elning yuragidan
Chiqqan ezgu so'z eding.
Millatning tilagidan,
Yaralgan yulduz eding.

Yurtimning har kunida,
So'zing, o'rning – o'zing bor.
Oylar to'lgan tunida,
Hech o'chmas yulduzing bor.

Hayoting ibrat bo'lib,
Umrimizga ulanar.
She'rlaring qudrat bo'lib,
Tildan tushmay kuylanar.

O'zbekiston degan yurt,
Yer yuzida bor ekan.
Seni etmagay unut,
Bu millat yashar ekan.

QUDALAR

Bir-birini siylashib,
Go'daklarin sizlashib.
Oshkor, pinhon so'zlashib,
Kelishadi qudalar.

Kelin emas, qiz qilib,
Ko'nglida yulduz qilib.
Zulmatni kunduz qilib,
Qiz izlashar qudalar.

Qizimga bir yor bo'lsa,
Dilda mehri bor bo'lsa,
Elga faxru or bo'lsa,
Kuyov tanlar qudalar.

Qudag'aylar pinhona,
Sezar o'zin qaynona.
Sep yig'ishni chunonam,
Qilmas aslo kandalar.

Ajriqdir el tomiri,
Asli bitta xamiri.
Ul-qiz Zuhro-Tohiri,
O'zli-o'zi qudalar.

SHE'RIYAT – ONAJONIM

Tun bo‘yi uxlamadim,
She‘r bag‘rida qoldim men.
G‘am yutdim, yig‘lamadim,
G‘amdan yiroq ketdim men.

O‘rgandim sabr etmoqni,
She‘r bilan suhbat aylab.
O‘rgandim qadr etmoqni,
Har aziz damni siylab.

She‘riyat bog‘i aro,
Qani qolsam bir umr.
Qudratli olam aro,
Sirdosh bo‘lsam bir umr.

Har so‘zga etib sajda,
Yashamoqlik armonim.
Har baytga jonim sadqa,
She‘riyat – Onajonim!

OILA VA VATAN

Dadam, onam, va bizlar
Hammamiz bir oila.
Oilani asrab bizlar,
Sevmog‘imiz – qoida.

O‘g‘il-qizlar ahil bo‘lib,
Yashaymiz bunda quvnoq.
Oilamiz Vatan bo‘lib,
Yuksalar ufqi porloq.

Vatan mehri yuraklarda,
Oilada uyg'onar.
Oilaviy tilaklarda,
Vatan nurga chulg'anar.

Ota-onas, farzandlar,
Ahil bo'lsa – yurt obod.
Gul Vatanga dilbandlar
Bilan o'zbegin obod.

SOG'INCH

Azim Toshkentda bir oy,
Miriqib dam oldim men.
Kashf etib ajib chiroy,
Gullar shahrin kezdim men.

Ammo uzoqda qolgan,
Mang'it dildan ketmadi.
Amuday shovullagan,
Bog'lar ko'zdan ketmadi.

Sog'inib qoldim juda,
Ona shahrim Mang'itni.
Oqshomlari osuda,
Amudaryoday kentni.

Qanot yozib uchdim men,
Elimga qaytar yo'ldan.
Quloch yozib quchdim men,
Ayirma deb shu eldan.

SINFDA

Bir kun dars paytida,
Oq bo'r yo'qolib qoldi.
O'qituvchi turdi-da:
– Bo'r kimda? – so'rab qoldi.

Hamma jim, hech kim bilmas,
Kim olgan ekan, hayron?
O'rnidan turib O'lmas,
Dedi: olgandi Javlon.

– Qani kel, deb muallim,
Javlonbekni chaqirdi.
Javlon demasdan lom-mim,
Kissadan bo'r chiqardi.

– Nega olganding, ayt-chi? –
So'radi o'qituvchi.
– O'zingiz bergandingiz, –
Javob berdi o'quvchi.

Kecha dars tugaqach,
Navbatchisan, olgin deb.
Axir o'zingiz aytgach,
Olib qo'ydim, muallim.

ADABIYOT O'QITUVCHIMGA

Qutadg'u biligdan Navoiygacha,
Yusuf Xos Hojibdan Nizomiygacha.
Dilimga yo'g'irib ilmu urfonni,
Yo'l ochdingiz Abdulla Orifgacha.

Navoiydan, Fuzuliydan o'rganib,
Yuragimda qo'ydingiz she'r uyg'otib.
Maxtumquli, Ogahiyilar dahosin,
O'rganmoqqa yurakda ahd uyg'otib.

Qay birini aytay, ustoz, tashakkur,
Men she'riyat maydoniga chiqdim hur.
Fotha bering, shul maydonda ot surib,
Shoir bo'lsam elu yurtinga manzur.

KATTALARGA XAT

Televizorda bir kun,
Dahshatli kino ko'rdik.
El uyquda yarim tun,
Qulagan bino ko'rdik.

G'ishtlarning orasidan,
Qip - qizil qonlar oqdi.
Bir go'dak norasida,
Chorasiz, har yon boqdi.

Shuncha dahshat ichida,
Omon qolgandi go'dak.
Bo'mbalar portlashidan,
Go'yo ustun kelajak.

Go'dak kimning bolasi,
Onasi qayda uning?
U insonlar nolasi,
Dushmani yovuzlikning.

Urushu nizolarga,
Chek qo'ying ey, kattalar!
Motamga, azalarga,
Yo'l ochmangiz, kattalar.

ONA TOVUQ VA ...

Har yil erta bahorda,
Jo'ja ochar tovug'im.
Buvim turib saharda,
Berib qo'yar ozig'in.

Jo'jalarim qora, oq,
Jip-jip qilib o'ynashar,
Mushukchamni ko'rgan choq,
Onasiga ergashar.

Ona tovuq jo'jasin,
Qanoti-la asraydi.
Onalik mo'jisasin,
Ko'rsatib "qu-qu" laydi.

Shu tovuq ham bolam, deb,
Jonidan kechmoqqa shay.
Ammo kimlar o'zim, deb,
Bolasin tashlar atay.

(Eshiting, yovuz ona!)
Ey, vaqtি chog' yurguvchi!
Bunday o'tmaysiz azal.
Jo'jasin asraguvchi,
Shu tovuq sizzdan afzal.



XAZON YOQQAN ODAMGA

*Terakzorda yig'ilgan xazonga
kimdir o't qo'yibdi.
Xazon bilan qo'shilib ulkan terak
ham yonib yotardi...*

Gugurt chaqqan nobakor,
Sen yoqdingmi xazonni?
Qo'lingdan kelmay hech kor,
Kuydirdingmi jahonni.

Odam bo'lib dunyoda,
Bir tup og'och ekdingmi?
Ko'ksing ochib quyoshga,
Bir tomchi ter to'kdingmi?

Yo'q! Quyoshni sevmaysan,
Sevolmaysan mehnatni.
Bilganing, dil tig'laysan,
Bulg'aysan tabiatni.

Shu terak yonmaganda,
Bir uyga ko'rк bo'lardi.
Yoki usta qolida,
Sandiq, eshik bo'lardi.

Fe'ling o'tib o'zingdan,
Urmasin o'zgalarga.
His, havas yo'q ko'zingdan,
Kir yuqmasin dillarga.

POLIZDA

Dadam bizni ayni kuz,
Olib bordi qishloqqa.
Ranglardan ko'z qamashib,
Qoldik ancha qishloqda.

Katta poliz boshida,
Tarvuzlar uyum-uyum.
Qovun xirmon qoshida,
Ko'rdik qorovul uyin.

Chaylada mazza qilib,
Gurvak qovunga to'ydik.
Shobboz, beshagin olib,
Onamga atab qo'ydik.

Qovun sayli dillarga,
Baxsh etar totli orom.
Qani, qovun, gullarga
To'liblar ketsa olam.

ONA MAKTABIM

Hayot degan yo'llarga,
Boshlaguvchi karvonim.
Qudrat berib qo'llarga,
Qo'llaguvchi sarbonim –
Ona maktabim.

Kel, bolam, deb quchog'ing,
Ochding o'g'il-qizingga.
Tuyib mehru ardog'ing,
Aylandik qarog'ingga
Ona maktabim.

Ilmu fan yo'llaridan,
Gul terishni o'rgatding.
Ko'ngilning cho'llariga,
Gul ekishni o'rgatding -
Ona matabim.

Quchog'ingni to'ldirib,
O'qiyimiz shodu xandon.
Dillarga nur yo'g'dirib,
Turuvchi sen quyoshsan -
Ona matabim.

MILLAT SOTQINIGA

O'zingnimas, elingni,
Hayron aylading.
Jinoyatdan yo'lingni,
Vayron aylading.

Onang nomus o'tida,
Qovrular, bilsang.
Otajoning qaddida,
Sen kuch emassan.

Turli-tushdan sen tomon,
Nafratlar yog'iladi.
Izlarining eng yomon,
Qarg'ishlar aytildi.

Agar o'lsang yurt yeri,
Seni olmas bag'rige.
Vatanning nomard eri,
Zor o'tar tuprog'iga.

QORAQALPOG'IM

Osmonida uchgan qushlar toladi,
Bog'larini kezib ko'ngil to'ladi.
Shoirlari bulbul deysan misoli,
Kelgan mehmon albat bunda qo'nadi.

Cho'llari cho'l emas, xazina uning,
Dovrug'i dunyoni kezar Ustyurtning.
Qoratov, Yumurtov og'a-iniday,
Bag'rida asraydi yurtim boyligin.

Ma'naviy olamda san'ati ulug',
Qoraqalpoq elin biylari ulug'.
Edige bolasi ot surib o'tgan,
Berdaqlar kuylagan tuprog'i ulug'.

Oqboshli, yantoqli cho'li safoli,
Mehnat bilan kechgan oni ma'noli.
Ko'zları qisig'im, qoraqalpog'im,
Sen-la Nasibaning umri safoli.

MANSAB KURSISI

G'animat bu dunyoda,
G'animat narsalar ko'p.
Odamdan-da ziyoda,
Turguvchi lahzalar ko'p.

Barchasidan omonat,
Mansab kursisi turar.
Ko'zin tikib tumonat,
Odamlar umri o'tar.

Nechun mansab o'tida,
Kuyib yashar odamlar?
Hoyu havas ortida,
Yelib yurar odamlar.

Mansab kursi omonat,
O't ustiga qurilgan.
Qilsangiz gar xiyonat,
Olov sizga urilar.

Tushunmasman balki, men,
Mansab gadolarini.
Anglamasman balki, men,
Aj'ab xatolarini.

EH, ODAMLAR...

Bir kun onam yumushdan,
Xunob bo'lib qaytdilar.
Dilin ezgan tashvishdan,
Bir shingil aytdilar.

Do'stim, deb men dilimni,
Ochsam, do'stim sotibdi.
Chil-chil etib ko'nglimni,
Malomatlar otibdi...

Bolajonim, esda tut,
Diling ochma har kimga.
G'am-alaming ichga yut,
Vaqt keladi malhamga.

Hayrondirman, azizlar,
Do'stilar bormi jahonda.
Qiziq, hatto kunduzlar,
Urilasiz yolg'onga.

Eh, odamlar, kimsizlar,
Ne uchun yashaysizlar?

XIVADA

Qasrlarni etdik ziyorat,
Dilimizda tug'ildi hayrat.
Qadim shahar malohatidan,
Yuraklarda ulug' muhabbat.

Pahlavon pir dahmasi uzra,
Quyosh nuri o'ynaydi, nuqra.
Ichan qal'a sinoatidan,
Hayratlandik balki ming bora.

Ochiq osmon ostida go'zal,
Qadim shahar barq urar azal.
Moziy bilan bugunni bog'lab,
Qubbalardan to'kilar g'azal.

Ark tomonda ajib sukunat,
Dillar qurar unsiz bir suhbat.
Qancha baxtu q'amlarni yutgan,
Shahar turar to'kib salobat.

TERRORCHIGA

Ey qo'llari qon, razil,
Bir kun ketgung zer-zabil.
Seni qarg'ab o'tadi,
Avlodlar ham, buni bil!

Xudo seni sevmaydi,
Odam seni sevmaydi.
Olam sendan jirkanib,
Mo'r-malaxday quvlaydi.

Sendan ilon yaxshidir,
Tabiatning naqshidir.
Sen dunyoga chipqonsan,
Uni kesmoq yaxshidir.

O'lim, senga terrorchi,
Bizga qo'l cho'zib ko'r-chi!
Do'zax o'tin yondirib,
Itaramiz, terrorchi!

QO'SHNILAR

To'y-azada bo'lar bosh,
Biri ko'zu, biri qosh.
O'g'il-qiyłari sirdosh,
Oqibatli qo'shnilar.

Ertalab tong saharda,
Non yopsalar agarda.
Ilinar bir-biriga,
Muruvvatli qo'shnilar.

Onalari – onamiz,
Otalari – otamiz.
Bariga biz bolamiz,
Saxovatli qo'shnilar.

Qarindoshdan – da yaqin,
Har ishda doim tayin.
Yuraklari kundayin,
Haroratli qo'shnilar.

HAFIZA VA TELEFON

Telefon jiringlasa,
Chopib borar Hafiza.
– Allo, men Hafizaman,
Aytaqol, gaping bo'lsa!..

Bidirllab so'zlayverar,
Bor gapin taxlayverar.
– Oyim, – deydi, – hovlida,
Dadam-chi, uyqudalar.

Telefonning ichida,
Nima qilib yuribsiz?
Yaxshisi uyga kelng,
Dadam bilan ichasiz.

Kulmang, nega kulasiz,
Keling, mazza qilasiz.
Dadam uyqudan tursa,
Ichganini ko'rasiz.

Tilpondan chiqaqoling,
Qani, tez bo'laqoling.
Go'shakni qo'yaqoling,
Tez chiqib olaqoling..,

FAXR

Donlar to'la xirmonda,
Non to'la dasturxonda.
Shunday Vatan bormikan,
Bu to'garak jahonda?

Bolarilar xizmatda,
Bulbul kuylar xilvatda.
Keksalarin ardoqlab,
Qo'yishadi izzatda.

Sut bulog'i qaynaydi,
Do'st bir-birin qiymaydi.
Dala-dashtda, bog'larda,
Ozod mehnat qaynaydi,

Qurtlari ipak to'qir,
Qushlari g'azal o'qir.
Farzandlari bilimdon,
Qizlari gilam to'qir,

Shunchalar so'lim diyor,
Toshlari ham gul diyor.
Nasib etmish bizlarga,
Kuyib, kul bo'lsin ag'yor.

RUHIYATIM

Odamlardan qolar konglim,
Yo‘qotganda to‘g‘ri yo‘lim.
Qo‘llarimdan tutmasalar,
Ko‘rsatmasa o‘ngu so‘lim.

Odamlardan ranjiyman ham,
Yuragimni bosganda g‘am.
Ko‘z yoshimni artmasalar,
Mening bilan chekmasa g‘am.

Odam hovrin odam olar,
Do‘sit tashlagan qadam olar.
Nasibani tushunsangiz,
Yaxshilikdan orom olar.

SUMALAK

*Sumalagim qozonlarda qaynaydi - yey.
Qo’shiqdan*

Qozon to‘la sumalagim qaynaydi,
Qizaloqlar sho‘xu shodon o‘ynaydi.
Momolarning ertagini tinglashib,
Ko‘zlarimiz uyqu nima bilmaydi.

“Yetti qavat osmonlarning ustidan,
Farishtalar tushib kelar bir pasdan.
Raqs etishar o‘choq boshda ohista,
Mast bo‘lishib sumalakning isidan.”

Farishtalar kelishini kutgancha,
O‘ltiramiz osmonga ko‘z tikkancha.
Ammo q‘olib uyqu bizni elitar,
Dong qotamiz toki tonglar otguncha.

– Sumalakka! – chorlab qolar momolar,
– Bismilloh! – deb ta'min ko'rар bobolar.
Sumalakka cho'mich urgan farishta –
Omon bo'lsin, deymiz, aziz momolar!

BOLARI

Viz-viz, bolarilar,
Tinmaydi asal yig'ib.
Kuzataman tush paytlar,
Gohida boqqa chiqib.

O'ylayman: odamdan ham
Bolarilar aqli.
Yolg'iz qolishmas bir dam,
Va turtishmas aqalli.

Ishlaydilar beminnat,
Bir uyaga bol yig'ar.
Kun bo'yi qilib mehnat,
Odamlar-chun rizq yig'ar.

Odamlar-chi, bir-birin,
G'ajishga ham tayinlar.
Yashirib quyosh nurin,
O'zidan ham qizg'anar.


Kenglikni, saxiylikni,
Olsaydi bolaridan.
Hatto hotamtoylilikni,
O'rganmoq shart aridan.

YANGI YIL KUNI

Yaxshi umid, orzular bilan,
Kirib keldi elga yangi yil.
Kumush qoru yog'dular bilan,
Bezandilar har bir so'qmoq, yo'l.

Ghana uchar bolalar shodon,
Oq ko'rpga o'rangan zamin.
Qor gullarin sochadi osmon,
Zavqim oshar tikilgan sayin.

Buncha go'zal yangi yil kuni,
Hamma quvnoq, hamma baxtiyor.
Hatto quyosh qutlab bizlarni,
Bulut osha mo'ralab qo'yari.



MUNDARIA

O'zbekiston vatanim.....	4
Yurtbosimga.....	5
Amudaryoga.....	5
Yumurtov.....	6
O'zbegim aziz.....	7
Havas.....	7
Yaxshilik qil.....	8
Endi bilsam.....	9
Yurtimning yomg'iri.....	10
Rassom.....	10
Tilak.....	11
Navro'z.....	12
Turna bilan mayna.....	13
Tovus va llon.....	14
Orzu.....	16
Quyosh.....	16
Qo'shiq sehri.....	17
Paxtazorda.....	17
Tush.....	18
Tilanchi.....	19
Yelkamdag'i farishtalar.....	20
Kashfiyat.....	20
Singlimga.....	21
Qo'zichoq.....	22
Feruza.....	22
Qaldirg'och.....	23
Salom, yoshlik.....	24
Kamalak.....	25
Bahor bo'laman.....	25
Katta odam bo'laman.....	26
Onamga.....	27
Shoir Muhammad Yusufga.....	28
Oila va Vaten.....	29
She'riyat – onajonim.....	30
Qudalar.....	30
Sog'inch.....	31
Sinfda.....	32
Adabiyot o'qituvchimga.....	33
Kattalarga xaf.....	33
Ona tovuq va.....	34
Xazon yoqqan odamga.....	35
Polizda.....	36
Ona məktəbim.....	36
Millet sotqiniga.....	37
Qoraqalpog'im.....	38

Mansab kursisi.....	38
Eh odamlar.....	39
Xivada.....	40
Terrorchiga.....	40
Qo'shnilar.....	41
Hafiza va telefon.....	42
Faxr.....	43
Ruhiyatim.....	44
Sumalak.....	44
Bolari.....	45
Yangi yil kuni.....	46

Nashr uchun ma'sul A. IRISBOYEV

Rassom Olim RAHMATULLAYEV

Muharrir Muzaffar AHMAD

Musahhih Abdughalil TURSUNOV

Texnik muharrir Rustam ISAKULOV

Босишга руҳсат этилди. 30.11.2004 й.

Қоғоз бичими 84x108 1/32

Босма табоби 1,5. Адади 500 нусха.

Баҳоси келишилган нарҳда. Буюртма № 306

Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий қутубхонаси
нашриёти, Хоразм қўчаси, 51.

Алишер Навоий номидаги
Ўзбекистон Миллий қутубхонаси босмахонаси.
Тошкент, X. Сулаймонова қўчаси, 33.